




Qoraqalpog'iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-fevral)

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat
ishlab chiqarish hajmi,
mlrd. so'm, o'sish sur'ati % da



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-fevral oylarida respublika korxonalarini tomonidan 2179,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 105,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 85,7 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoatning – 8,0 % ga a hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 42,2 % ga o'sishi xizmat qildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 54,4 % ga hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash sanoatida – 78,1 % ga pasayish kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tafsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12,2 mld. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini tashkil etdi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning shu davriga nisbatan ohak tosh qazib olish – 53,6 % ga chaqiq tosh – 42,9 % ga oshgan bo'lsa, tabiiy qum qazib olish – 14,0 % ga gaz kondensati – 3,8 % ga hamda tabiiy gaz qazib olish – 6,7 % ga pasaygan.




Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-fevral	2020-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Ohak tosh , ming t.	27,1	41,6	14,5
Tabiiy qum, ming t.	71,0	61,0	-10,0
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	470,3	452,6	- 17,7
Gaz kondensati, ming t.	19,9	18,6	-1,3
Chaqiq tosh, ming t.	21,9	31,3	9,4




Ishlab chiqaradigan sanoat

2020-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1868,0 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulot-larining 85,7 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,7 % ni (2019-yil yanvar-fevral oylarida - 1,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 68,0 % (69,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 5,4 % (4,3 %) va quyi texnologiyalisi - 25,9 % (24,8 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 58,8 % (2019-yil yanvar- fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 100,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 11,5 % (2019-yil yanvar- fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 9,9 % (2019-yil yanvar- fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,0 %) ni, boshqa nometall mineral mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,9 % (2019-yil yanvar- fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,5 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020-yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 1,5 ming tonna tozalangan gurich (2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 192,3 % ga o'sgan), 33,0 ming tonna dinatriy karbonati (8,0 %) ga 14,0 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (4,9 %) ga yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-fevral	2020-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	13,4	8,8	-4,6
Aroq, ming liter 100 % li spirit	701,2	596,2	-105,0
Paxtadan yigirilgan ip, t.	-	599	599
Polietulen, ming t.	61,5	61,2	-0,3
Polipropilen, ming t.	16,1	16,9	0,8



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 290,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,3 % ini) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 42,2 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-fevral	2020-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln. kVt/s	716,4	702,8	-13,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	13,8	10,4	-3,4
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	23244,1	25884,4	2640,3



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-fevral	2020-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	638,7	996,3	357,6
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	917,9	2014,2	1096,3
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	4355,0	5535,7	1180,7

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar – 119,4 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 56,0 % ga hamda suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar – 27,1 % ga oshganligi kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 311,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 4,4 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 14,3 % ni tashkil etdi.



2019-yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020-yil yanvar-fevral oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 40,2 % dan 40,1 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 7,0 % (2019-yil yanvar-fevral oylarida 8,4 %) ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 32,5 % ni, shuningdek, Xo'jayli tumani 10,7 % ni, To'rtko'l tumani 9,6 % ni, Taxiatosh tumani 9,5 % ni, Beruniy tumani 8,2 % ni va Qo'ng'irot tumani 6,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati respublika o'sish sur'ati (104,4 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Taxiatosh (114,4 %), Bo'zatov (107,6 %), Qo'ng'irot (107,4 %), Xo'jayli (105,4 %), Shumanay (105,0 %), Mo'ynoq (104,9 %), To'rtko'l (104,8 %) hamda Amudaryo tumanlarida (104,5 %) qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish
hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020-yilning yanvar-fevral oylarida)**

	Mird. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, % da
Qoraqalpog`iston Respublikasi	311,1	100	104,4
Amudaryo	18,3	5,9	104,5
Beruniy	25,6	8,2	100,7
Bo`zatov	1,1	0,4	107,6
Qonliko'l	3,4	1,1	100,1
Qorao'zak	5,1	1,6	100,3
Kegayli	5,9	1,9	100,4
Qo'ng'irot	19,5	6,3	107,4
Mo'ynoq	2,5	0,8	104,9
Nukus	5,4	1,7	100,1
Taxiatosh	29,3	9,5	114,4
Taxtako'pir	2,9	0,9	100,2
To'rtko'l	29,9	9,6	104,8
Xo'jayli	33,4	10,7	105,4
Chimboy	9,2	3,0	104,0
Shumanay	4,8	1,5	105,0
Ellikqal'a	13,6	4,4	101,7
Nukus sh.	101,2	32,5	103,2

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 29,2 %, shuningdek, Taxiatosh tumani 10,4 % ni, To'rtko'l va Xo'jayli tumanlari 10,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Taxiatosh (149,1 %) va To'rtko'l (123,8 %) tumanlarida qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020-yilning yanvar-fevral oylarida)**

	Mird. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-fevral oylariga
Qoraqalpog`iston Respublikasi	186,3	100	104,6
Amudaryo	11,3	6,1	104,3
Beruniy	15,0	8,0	101,3
Bo`zatov	0,8	0,4	107,6
Qonliko'l	2,4	1,3	101,5
Qorao'zak	2,9	1,6	100,4
Kegayli	3,8	2,0	100,6
Qo'ng'irot	13,4	7,2	105,1
Mo'ynoq	1,7	0,9	104,1
Nukus	2,7	1,4	99,9
Taxiatosh	19,4	10,4	149,1
Taxtako'pir	2,0	1,1	98,2
To'rtko'l	19,1	10,3	123,8
Xo'jayli	19,1	10,3	105,3
Chimboy	6,4	3,4	103,9
Shumanay	3,0	1,6	99,6
Ellikqal'a	8,9	4,8	100,3
Nukus sh.	54,4	29,2	92,3

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 37,5 %, shuningdek, Xo'jayli 11,5 % ni, To'rtko'l tumani 8,7 % ni va Beruniy 8,5 % tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida respublika o'sish sur'ati (104,2 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Nukus shahri (119,5 %), Shumanay (116,1 %), Qo'ng'irot (112,8 %) tumanlarida qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020-yilning yanvar-fevral oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	124,8	100	104,2
Amudaryo	7,0	5,6	104,8
Beruniy	10,6	8,5	99,8
Bo`zatov	0,3	0,2	107,4
Qonliko'l	1,0	0,8	97,4
Qorao'zak	2,2	1,8	100,1
Kegayli	2,1	1,7	100,0
Qo'ng'irot	6,1	4,9	112,8
Mo'ynoq	0,8	0,6	106,7
Nukus	2,7	2,2	100,3
Taxiatosh	9,9	7,9	78,7
Taxtako'pir	0,9	0,7	105,0
To'rtko'l	10,8	8,7	82,3
Xo'jayli	14,3	11,5	105,5
Chimboy	2,8	2,2	104,4
Shumanay	1,8	1,4	116,1
Ellikqal'a	4,7	3,8	104,3
Nukus sh.	46,8	37,5	119,5



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1286,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 59,0 % ni tashkil etdi.




**Qoraqalpo'giston Respublikasi shahar va tumanlar kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	2020-yil yanvar-fevral mldr. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2179,8	105,2
Amudaryo	58,8	108,4
Beruniy	62,0	105,6
Bo`zatov	1,1	100,3
Qonliko'l	34,9	103,7
Qorao'zak	20,5	119,9
Kegayli	45,4	107,4
Qo'ng'irot	36,2	105,0
Mo'ynoq	7,0	103,0
Nukus	41,2	118,3
Taxiatosh	269,2	136,5
Taxtako'pir	3,6	104,0
To'rtko'l	63,2	107,8
Xo'jayli	75,3	108,2
Chimboy	27,4	100,6
Shumanay	8,1	105,8
Ellikqal'a	29,7	108,0
Nukus sh.	1396,2	100,2



**Qoraqalpo'giston Respublikasi ishlab chiqarish hajmida
shahar va tumanlar sanoat mahsulotlarining
ulushi, fizik hajm indeksi, % da**




Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Nukus shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 64,0 %), Taxiatosh (12,3 %) hamda Xo'jayli (3,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Bo'zatov (0,1 %), Taxtako'pir(0,2 %), Mo'ynoq (0,3%) hamda Shumanay (0,4 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.


Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, Taxiatosh (2019-yil yanvar-fevral oylariga nis-batan 136,5 %), Qorao'zak (119,9 %), Nukus (118,3 %), Amudaryo (108,4 %), Xo'jayli (108,2) hamda Ellikqal'a (108,0 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Shahar va tumanlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi
(2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, % da)





**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi
(2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, % da)**



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Taxiatosh (2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 114,4 %), Bo'zatov (107,6 %), Qo'ng'irot (107,4 %), Xo'jayli (105,4), Shumanay (105,0 %), Mo'ynoq (104,9 %) hamda To'rtko'l (104,8 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (4400,3 ming so'm), Taxiatosh (3673,1 ming so'm) tumanida o'rtacha Qoraqalpog'iston Respublikasi darajasi ko'rsatkichidan (1156,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 165,1 ming so'm bo'lgani holda Nukus shahrida – 319,0 ming so'mni, Taxiatosh tumanida – 400,5 ming so'mni, Xo'jayli tumanida – 274,1 ming so'mni, To'rtko'l tumanida – 140,7 ming so'mni, Beruniy tumanida – 135,2 ming so'mni tashkil etdi.




**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish
(2020-yil yanvar-fevral oylarida, ming so‘m)**

	Sanoat mahsulotlari	Iste’mol mahsulotlari
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1156,9	165,1
Amudaryo	298,0	92,9
Beruniy	327,0	135,2
Bo`zatov	52,1	50,5
Qonliko'l	688,3	67,5
Qorao'zak	389,5	96,1
Kegayli	628,4	81,2
Qo'ng'irot	280,2	151,2
Mo'ynoq	221,6	78,5
Nukus	829,2	108,8
Taxiatosh	3673,1	400,5
Taxtako'pir	89,1	72,2
To'rtko'l	297,6	140,7
Xo'jayli	617,8	274,1
Chimboy	245,5	82,5
Shumanay	145,2	85,3
Ellikqal'a	188,4	86,3
Nukus sh.	4400,3	319,0



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2020-yil yanvar-fevral oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 397,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 18,2 % ni tashkil etdi.




Shahar va tumanlar kesimida kichik biznes-ning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bo'zatov, Mo'ynoq, Shumanay va Ellikqal'a tumanlarida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Qorao'zak tumanida (99,99 %), Chimboy tumanida (95,9%), Taxtako'pir tumanida (95,9 %), Beruniy (78 ,3 %) kuzatildi.

Respublikamiz shahar va tumanlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Nukus shahar (6,8 %), Taxiatosh (7,0 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



**Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini
(2020-yil 1-mart holatiga ko'ra)**

Bugungi kunda respublikada 2403 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1068 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiyligi sonining 44,4 %) Nukus shahriga 560 tasi (23,3 %), To'rtko'l tumaniga 269 tasi (11,2 %), Beruniy tumaniga 239 tasi (9,9 %) to'gri kelmoqda.



2020-yil yanvar-fevral oyida respublikada 121 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 66 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi ulushi 54,5 %) Nukus shahrida 24 tasi (19,8 %), To'rtko'l tumanida 19 tasi (15,7 %), Amudaryo tumanida 12 tasi (9,9 %) hamda 11 tasi (9,1 %) Ellikqal'a tumanida tashkil etildi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi
statistika boshqarmasi sanoat
statistikasi bo'llimi Tel.: (61) 222-75-87**